

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILI O'QITISH XUSUSIYATLARI

**Ergasheva Gulchehra**

*Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani*

*7- umumta'lism maktabi*

*Ingliz tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada umumta'lism maktablarida ingliz tili o'qitish xususiyatlari, o'quvchilarga materiallarni o'rgatish, tushuntirish ko'nikma, malaka hosil qilish to'g'risida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ingliz tili o'qitish, o'quv materiali, xalq pedagogikasi, o'quv jarayoni*

Har qanday jarayon harakat tufayli amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni ham yosh avlodda aqliy kuchlarni rivojlantirishga va axloqiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan harakatdir. Biz o'qish jarayonini qanday tushunamiz? O'qish jarayoni – o'qituvchining va u rahbarlik qiladigan o'quvchilarning – ularga aqliy qobiliyatlarni o'stirish, dialektik dunyoqarash asoslarini tarkib toptirish va hayotga tayyorgarlikni amalga oshirish maqsadida bilim, ko'nikma va malakalarimizni ongli hamda puxta o'zlashtirishga qaratilgan ilmiy asosdagi ishlarning majmuyidir.

Boshlang'ich maktablarda ingliz tilini o'rgatishda, o'qitish vositalari muhim ahamiyatga ega. Ingliz tili o'qitishning turli o'qitish vositalari mavjud. Ingliz tili o'qituvchisi ulardan foydalanib o'quvchilarga materiallarni o'rgatadi, tushuntiradi, ko'nikma, malaka hosil qiladi. Ular yetishmasa, bo'lmasa, biz o'quvchilarga ingliz tilidan to'liq amaliy bilim berishimiz, tarbiyalashimiz qiyinlashadi, sekinlashadi. Turli xil ko'rgazmalarni qo'llash tezda tushunishga, ongli o'zlashtirishga, xotirada yaxshi saqlanishiga yordam beradi. Magnit doska orqali o'qituvchi turli rasmlarni, so'zlarni, kartochkalarni o'quvchilarga ko'rsatib darsni tashkil qilish mumkin. Darslarda ovozli talaffuzlardan, turli xil slaytlardan hamda rasmlli ko'rgazmalardan foydalanishimiz dars samarasini yanada oshirmoqda.

Bu usullar bolalar lug'atini boyitishga, o'qituvchi nutqidan kerakli so'zlarni ajratib olishga, shuningdek o'z nutqlarida egallangan so'zlarni ishlata olishga yordam beradi. Bola atrofdagilardan eshitgan hamda ko'rgan har qanday so'zlarni o'zlashtirib boradi, natijada bu so'zlar bola lug'atining mahsuliga aylanadi. O'qish maqsad, mazmun va harakatlar bilan bog'liq bo'lib, ular yordamida o'quvchilar ma'lum bilimlar, ko'nikma va malakalarini o'zlashtiradilar, o'qish o'qituvchining faolligi naijasida rivojlanadi, xarakter kasb etadi, u turli shakllarda (mehnat, jamoatchilik faoliyati, kitobxonlik, o'yin va hokazolar tarzida) amalga oshishi mumkin, u bilishga tayanadi hamda individual tajribada shaxsning xulqida o'zgarishni vujudga keltiradi.

Biz o'qish deganda o'quvchilar vogelikni bevosita va malakalar egallashining – rejali o'zlashtirishning maqsadga muvofiq jarayonini tushunamiz. Bunda o'qish jarayoni ma'lum darajada kuchli motivlashtirishdan vujudga keladi va uning natijasi shaxsning qarashlari, e'tiqodi, xatti-harakatlari, umumiylamoqotiga, qisqasi, uning xulqiga ta'sir ko'rsatadigan mavjud bilim va ko'nikmalar zahirasining ortishida namayon bo'ladi, deb bilmiz.

O'qituvchi o'quvchilar ishini borishini kuzatish va ular erishgan natijalarni baholash asosida o'zining ko'rsatmalari yo'naltiruvchi savollari, tegishli tushuntirish va hokazolar bilan bolalarning o'quv faoliyati jarayoniga tuzatishlar kiritadi. Shunga ko'ra, ta'lim birinchidan o'qishni, ikkinchidan o'qitishni, ya'ni o'qishni va shu bilan birga, uni nazorat qilish hamda tuzatish jarayonlarini o'z ichiga oladi, deyish mumkin.

Ta'lim maqsad, mazmun, o'qituvchining shaxsi, o'quvchilarda dastlabki bilimlarning xarakteri, ingliz tilida o'rgangan so'zlarning qanchalik bilganligi va uni mustahkamlay olganligi va boshqa anchagina omillar bilan belgilanadi. Farobiy o'zining "Ideal shahar aholisining maslagi" nomli risolasida ta'kidlaganidek, fan o'qitish orqali o'zlashtirilsa, ezgu fazilatlar tarbiya yordamida egallanadi. O'qitish faqat aqlning chiniqishi uchun emas, balki umumiylamoqotiga, shu jumladan, axloqiy kamol topish uchun ham asosdir. O'qitish va tarbiyalash o'zaro bog'liq bo'lib, shaxsni ma'naviy kamol toptirishning turli yo'llaridir.

Xalq pedagogikasida inson aqlan barkamol bo'lishining eng muhim sharti – uni bolaligida o'qitish va tarbiyalashda, deb hisobladi. O'qitish ma'lum qonuniyatlargacha bo'yusunadi va umumfalsafiy metodologiyaga muvofiq bu qonuniyatlar ta'lim jarayoni bilan ancha kengroq ijtimoiy jarayonlar o'rtaisdagi umumiylamoqotiga, muhim, zarur, barqaror aloqalardan, shuningdek, ta'limning alohida komponentlari, ya'ni uning maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari o'rtaisdagi ichki bog'lanishlardan iboratdir. Aniqlangan didaktik qonunlardan qator asosiy talab kelib chiqadiki, ularga rioya qilish o'qitishning yaxshi sitatli va samarali amalga oshuvini ta'minlaydi.

O'qitish o'quv jarayoning professional tomonini tashkil qiladi. Inson shaxs sifatida shakllanishining ikki tomonlama hayotiy tarbiyalanish hamda o'quv jarayoning ichki strukturasi yo'l -yo'riq ko'rsatish va o'quvchilar o'quv bilish topshiriqlarini musataqil holda bajarishidan iborat harakatdir. Buning yo'l -yo'riq ko'rsatish jihatini muallim o'quvchiga o'quv materiali bo'yicha o'rgatadigan narsalar va ular ustida ishlash metodlari bilan izohlanadi. O'quvchilar ana shu asosda o'zlarining ma'lumot mazmunini o'zlashtirishga doir faoliyatlarini tashkil qiladilar. So'z boyligi bolalarga bilimlarni tez va puxta o'zlashtirib olish va bu bilim tushunchalarni nutq orqali ifodalash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, bola kamoloti uchun ham keng yo'l ochiladi. Bilimlarni puxta egallashga, uni sekin – asta hayotga tadbiq etishga ham o'rgatadi.

“Har qanday taraqqiyotning asosi, butun bilimning xazinasidir. Har qanday tushunish undan boshlanadi, u orqali o’tadi va unga qaytadi” - degan edi ulamolarimizdan biri. Umuman aytganda, ingliz tilini o’rganishdan ko’zlanadigan asosiy maqsad uning sifatini yuqori pog’onalarga ko’tarishdir. Shunga ko’ra o’qituvchining faoliyatiga qanday yangilik vujudga kelishi kerak? Avvalo, u materialni shunchaki bayon etmasligi va o’quvchilarga tayyor xulosalar hamda umumlashmalarni aytib bermasligi, balki ularning fikrini o’rganiladigan obyektdagi jalg qilishi, undan muammo topishi yoki imkon bo’lsa, o’quvchilarning o’zlarini mazkur obyektdagi muammoni mustaqil holda o’ylashga rag’batlantirishi, muammoli vaziyatni yaratib ularning daqqatini safarbar qilishi, tafakkurni faollashtirishi, ta’limdagi loqaydlikni bartaraf etishi, darslarni diqqat bilan kuztishga, tasavvur qilishga, eslab qolishga o’rgatishi lozim. Mana shularning hammasi ingliz tilini o’rganish jarayonida zamnaviy mazmun baxsh etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Габай Т.В. Педагогическая психология: Педагогика и психология: Учебное пособие. – М.: Гардарики, 2003. – 480 с.
2. Грамкова М.Т. Психология и педагогика профессиональной деятельности: Учебное пособие для вузов.–М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2003.–415 с.
3. Григорович Л.А., Марцинковская Т.Д. Педагогика и психология: Учебное пособие. –М.: Гардарики, 2003. – 480 с.